

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

BERDINAZAROV QODIRBEK NURIDIN O‘G‘LI

**POLIPROPILEN VA UNING ASOSIDAGI POLIMER ARALASHMALARDA
NANOSTRUKTURALAR TURINI HOSIL QILISH, TUZILISHI VA
XUSUSIYATLARI**

**01.04.06 – Polimerlar fizikasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Fizika - matematika fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
физико – математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on Physics and
Mathematics sciences**

Berdinazarov Qodirbek Nuridin o‘g‘li Polipropilen va uning asosidagi polimer aralashmalarda nanostrukturalar turini hosil qilish, tuzilishi va xususiyatlari.....	3
Бердиназаров Кодирбек Нуридин угли Формирование, строение и свойства наноструктур в полипропилене и полимерных смесях на его основе	21
Berdinazarov Qodirbek Nuridin ugli Formation of various nanostructures in polypropylene and polymer blends based on it, structure and properties.....	39
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	43

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

BERDINAZAROV QODIRBEK NURIDIN O‘G‘LI

**POLIPROPILEN VA UNING ASOSIDAGI POLIMER ARALASHMALARDA
NANOSTRUKTURALAR TURINI HOSIL QILISH, TUZILISHI VA
XUSUSIYATLARI**

**01.04.06 – Polimerlar fizikasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**FIZIKA - MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika - matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/FM890 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashurov Nigmat Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abduraxmonov Umarbek
fizika - matematika fanlari doktori, professor

Ataxanov Abdumutolib Abdupatto o'g'li
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

“Fan va taraqqiyot” Davlat unitar korxonasi

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-61, e-mail: polymer@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (__ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7^b uy. Tel.:(+99871) 241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «__» _____ dagi __ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.S.Negmatov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor, akademik

I.N.Nurgaliyev

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

S.Sh.Rashidova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor, akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda polimer materiallarning qo'llanilish sohalari kengayib borishi polimer materiallarning elastik mustahkamligi va maxsus xususiyatlarini oshiradigan innovatsion yondashuvlarni talab qiladi. Yangi polimer turlarini ishlab chiqarishga qaratilgan texnologiyalarni ishlab chiqish va uni sanoatga joriy qilishdan ko'ra ancha tejamkor bo'lgan mavjud polimerlar asosida yangi polimer materiallarini yaratish alohida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda nanostrukturali polimer aralashmalar va to'ldirilgan polimer kompozitlarni yaratish, material¹larning xususiyatlari bilan morfologik va strukturaviy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar jadal olib borilmoqda. Bu borada tarkibiga qatlamli silikat (organik modifikatsiyalangan montmorillonit) nanokompozitlarini kiritgan holda kristallanuvchi polipropilen va poliamid-6 polimerlari asosida ko'pkomponentli nanostrukturali polimer kompozit materiallarini olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi va eksportga mo'ljallangan raqobatbardosh yangi polimer nanokompozitlar va aralashmalar yaratish sohasini rivojlantirishda ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil etish va mahalliy poliolfenlar asosida yangi xossalarga ega materiallar sohasini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, polimer kompozitlar va aralashmalarni yaratish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ hamda 2030- yilgacha bo'lgan ilm- fanni rivojlantirish konsepsiyasida² "...mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish..." vazifalari belgilab berilgan. Bu borada kristallanuvchi polipropilen va poliamid-6 polimerlari asosida tarkibga qatlamli silikat nanozarrachalarini kiritgan holda, ko'pkomponentli nanostrukturali polimer kompozit materiallarini shakllantirish usullarini boshqarib, xususiyatlarni yaxshilash va qo'llanilish sohasini kengaytirishga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018- yil 17- yanvardagi PQ- 3479-sonli "Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo'lgan mahsulot va xom ashyo turlari bilan barqaror ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4292-sonli "Kimyo sanoatini korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog'lomlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2021-yil 19-martlagi PQ-5032-sonli "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28- yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" Farmoni.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yoʻnalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoni oʻrganilganlik darajasi. Dunyoning koʻpgina mamlakatlarida polimer kompozitlar va aralashmalarning xususiyatlarini oʻrganish hamda amaliyotda qoʻllash boʻyicha ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Chop etilgan ishlarning koʻpchiligi polimer matritsada toʻldiruvchi yoki dispers faza zarrachalarini taqsimotini yaxshilash imkoniyatlari va bunda kompatibilizatorlarning nanostrukturaviy morfologiyani barqarorlashtirishda roli va ahamiyati va fazalararo adgeziyani oshirishning xususiyatlarga taʼsirlarini oʻrganishga bagʻishlangan. Polimer kompozitlar va aralashmalarda nanotuzilmalarni hosil qilishning asosiy bosqichlarini nazariy jihatdan yondashuvlar asosida ularning mexanizmlarini oʻrganish boʻyicha ilmiy yoʻnalishni rivojlantirishga C.Macoska, G.Groeninckx, P.Moldenaers, K.Zdiri, Y.Dong, M.Afshari, P.Motamedi, M.Almeida, H.Dennis, N.S. Yenikolopov, A.A.Berlin, Y.S. Lipatov, V.N.Kuleznev, V.G.Kulichixin va bir qator ilmiy maktablar hissa qoʻshishgan. Polipropilen (PP), poliamid-6 (PA6) va qatlamli silikatlar asosidagi polimer kompozitlar va aralashmalarda toʻldiruvchi yoki dispers faza taqsimotini yaxshilashda kompatibilizatorlar muhim ahamiyatga ega ekanligiga I.Vermesch, B. Favis, Z.Fang, A.Wilkinson, J.Duvall va boshqa olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini taʼkidlab oʻtish zarur.

Respublikamizda mazkur yoʻnalish rivojiga akademiklar S.Sh. Rashidova, S.S. Negmatov, professorlar A.T. Jalilov, N.R. Ashurov va boshqalar oʻz ilmiy izlanishlari bilan ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlardagi muammolarni hal etishga oʻz hissalarini qoʻshgan.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda koʻpkomponentli nanostrukturali polimer tizimlariga asoslangan tadqiqotlarda strukturaning shakllanishi muammolari va ularning reologik xossalarga taʼsiri, kristallanish va erish jarayonlarining xususiyatlari, morfologiya hosil boʻlish dinamikasi va ularning materialning elastik-mustahkamlik va maxsus xususiyatlari bilan bogʻliqligi yetarlicha oʻrganilmagan. Mazkur yoʻnalishda fundamental va amaliy izlanishlarni amalga oshirish PP asosida yuqori ekspluatatsiyon xossalarga ega polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar olish istiqbollari yuzaga keltiradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi.

Dissertatsiya ishi Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilayotgan “Oʻzbekistonda ishlab chiqarilgan poliolefinlar asosida nanokompozitsion polimer – polimer aralashmalar materiallari” mavzusidagi fundamental loyihasi (2020-2024 y.) va Belarussiyaning Yakuni Kupal nomidagi Grodny davlat universiteti hamkorligidagi MRB-AN-2019-18 “Texnologik uskunalari va transport komunikatsiyalarining funksional elementlari uchun nanokompozit termoplast materiallari” mavzusidagi qoʻshma ilmiy amaliy loyiha (2019-2021 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi polipropilen va poliamid-6 asosidagi polimer aralashmalarida nanotuzilmalarni hosil qilish va bu tuzilmalarni polimer

aralashmalarining morfologiyasini shakllantirishdagi rolini va ularning o'zaro reologik, termik va elastik-mustahkamlik xususiyatlariga ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- modifikatsiyalangan qatlamli silikatlar bilan PP va PA6 kompozitlarida nanotuzilmalar hosil qilish asoslarini o'rganish;

- turli nisbatlarda PP/PA6 polimer aralashmalariga malein guruhleri tutgan PP kompatibilizator sifatida kiritib hosil bo'ladigan strukturalarni o'rganish, aralashmalarning reologik xossalari orqali morfologiya rivojlanish dinamikasini boshqarish;

- PP/PA6 polimer aralashmalarining boshlang'ich komponentlarini qatlamli silikatlar asosidagi nanokompozitlar bilan almashtirish orqali morfologiya rivojlanishi va reologik xususiyatlarga nanokompozitlarning ta'sirini qiyosiy baholash;

- aralashmalarning termik xususiyatlari - kristallanish va erish jarayonlariga komponentalar tarkibidagi nanostrukturalarning ta'sirini baholash;

- ko'pkomponentli nanostrukturali polimer aralashmalarining elastik-mustahkamlik xususiyatlarini o'rganish va aralashmalarning olish sharoitlari va strukturaviy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash.

Tadqiqot ob'yekti – izotaktik PP, PA6, ularning qatlamli silikatlar (Cloisite15A, Cloisite20A va Cloisite30B) asosidagi nanokompozitlari va ko'p komponentli nanostrukturali polimer aralashmalari.

Tadqiqotning predmeti PP, PA6 va qatlamli silikatlar (Cloisite20A va Cloisite30B) kompozitlarda va malein guruhleri payvandlangan polipropilen (MA-p-PP) ishtirokidagi PP/PA6 polimer aralashmalarda nanostrukturalar hosil bo'lishini aniqlash, PP/PA6 aralashmalariga ularning qatlamli silikatlar asosidagi nanokompozitlarni qo'shgan holda ko'pkomponentli tizimlarning strukturaviy va elastik-mustahkamlik xususiyatlari o'rtasidagi korrelyatsiyon bog'liqligini aniqlash.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarda reologik tahlillar, skanerlovchi elektron mikroskopiya, rentgen nurlari difraksiyasi tahlili, diferensial skanerlovchi kalorimetr, termo-gravimetrik analiz va mexanik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kompatibilizator tarkibi va aralashtiruvchi qurilmalarning konstruktiv xususiyatlariga bog'liq bo'lgan, PP asosidagi interkalyatsiyalangan va eksfoliatsiyalangan nanostrukturalarni shakllantirish shartlari aniqlandi;

ilk bor PP/PA6 aralashmasida PP va PA6 asosidagi nanokompozitlarning kompatibilizatsiyalash - dispers fazaning nano o'lchamlardagi zarrachalarini barqarorlashtiruvchi effekti topildi;

ilk bor nanokompozitlar ishtirokidagi aralashmalarda komponentalarining erishi va kristallanish haroratlarida sezilarli o'zgarishlar aniqlandi (PA6 matritsa bo'lgan hollarda uchta erish cho'qqisi paydo bo'lib, nomukammal kristallitlar hosil bo'lishi tufayli polipropilen fazasining erish temperaturasi sezilarli pasayadi. PP matritsa bo'lganda esa PA fazasi kristallanmasdan amorf holatda qoladi);

eksfoliatsiyalangan PA6 nanokompozitlari interkalyatsiyalangan PP (15%) bilan solishtirganda elastiklik moduli va mexanik kuchlanish (50% dan ortiq) ni kuchaytirishda samaraliroq ekanligi aniqlandi, xuddi shu tendensiya ularning aralashmalarida ham namoyon bo'ladi, klassik kompatibilizator va PP

nanokompozitlari aralashmasi optimal mexanik xossalar - elastiklik moduli (30%), mexanik kuchlanish (55 MPa) va yaxshilangan deformatsiya qiymatlarini (360%) namoyon etishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

PP va qatlamli silikatlar asosidagi polimer kompozitlarda nanostrukturalarni shakllantirish uchun optimal sharoitlar va komponentalarning optimal nisbatlari aniqlangan;

interkalyatsiyalangan, eksfoliatsiyalangan tuzilmalar va ularni turlicha nisbatlarda hosil qilish, texnologik asbob-uskunalarining turi (plastograf, bir va ikki shnekli ekstruder) ga bog'liq bo'lishi aniqlangan;

matritsa yuqori modulli komponenta (PA6) bo'lganda aralashmalar uchun elastiklik moduli va oquvchan holatga o'tishdagi kuchlanish qiymatlari oshishi yaqqolroq namoyon bo'ldi, nanokompozitlar asosida kompatibilizatsiyalangan PP/PA6 aralashmalarining faqat morfologiyasi yaxshilanib, fazalararo adgeziya muammosi yechilmasdan, adgeziya faqat MA-p-PP asosidagi kompatibilizatorni kiritish bilan kuchayishi topilgan;

elastiklik modulining ortishi organik modifikatsiyalangan montmorillonit (OMMT) zarrachalari eksfoliatsiyalanganda yuzaga kelsa, oquvchan holatga o'tishdagi kuchlanish klassik kompatibilizator MA-p-PP kiritilganda ortishi namoyon bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. PP, PA6 va qatlamli silikatlar asosidagi nanokompozitlar va polimer aralashmalarining xossalarini o'rganish bo'yicha o'tkazilgan tajribalar natijalari zamonaviy fizik-kimyoviy usullar bilan aniqlangan. Tadqiqot natijalari asosida polimer dispers fazasi va modifikatsiyalangan qatlamli silikat zarrachalari dispersiyasi bilan kechadigan fizik-kimyoviy jarayonlar kinetikasi nazariyasiga muvofiq xulosalar chiqarilgan. Olingan ilmiy-amaliy natijalar matematik usullar yordamida hisoblanib, xalqaro va respublika ilmiy anjumanlarida muhokamalar qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar olishda optimal sharoitlar va tarkiblar hamda xususiyatlarni boshqarish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. PP, PA6 va qatlamli silikatlar asosida mexanik mustahkam va termik barqaror polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar olingan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati import o'rinini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan yuqori ekspluatatsiyon xossalarga ega polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar yaratishdan iborat. Yaratilgan polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar an'anaviy polimer materiallardan ko'ra mexanik mustahkam va termik barqaror ekanligi ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Polipropilen va uning asosidagi polimer aralashmalarda nanostrukturalar turini hosil qilish, tuzilishi va xususiyatlari" bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligining foydali modelga patenti olingan (FAP 01873, 25.03.2021 y.). Natijada polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar asosidagi materiallar sanoatda ishlatiladigan metal konstruksiyalar o'rnini bosuvchi arzon va sifatli detallardan foydalanish imkonini bergan;

PP, PA6 va qatlamli silikatlar asosidagi polimer nanokompozitlar va polimer aralashmalar “Fan va taraqqiyot” DUK da Davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida 2018-2020 yillarda bajarilgan Ф-7-93- sonli “Turli xil maqsadga yo‘naltirilgan samarali kompozitsiyon polimer materiallarni olish uchun kompozitsiyalar komponentlarini fizik-kimyoviy o‘zaro ta’sir mexanizmini tadqiq etish va ularning xossalarini o‘zgarishi va boshqarilish qonuniyatlarini o‘rganish” mavzusidagi fundamental loyihada qo‘llanilgan (Toshkent davlat texnika universiteti “Fan va taraqqiyot” DUK ning 2023 yil 8-iyundagi 485-01 sonli ma’lumotnomasi). Natijada polimer matritsada to‘ldiruvchini gomogen taqsimlash va kristal strukturasi boshqarish orqali polimer kompozitlarning mexanik xususiyatlarini yaxshilashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya bo‘yicha olingan asosiy natijalar 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilingan va muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 11 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektlari va predmetlari belgilangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Polipropilen asosidagi polimer kompozitlar va aralashmalarda nanotuzilmalar hosil qilish”** nomli birinchi bobida PP, PA6 va qatlamli silikatlar asosida polimer kompozitlarda va polimer aralashmalarda nanotuzilmalar hosil qilishning nazariy asoslari va xorijiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan suyuqlanmada polimer aralashma va kompozitlarni shakllantirish bo‘yicha tajribaviy natijalar, morfologiya rivojlanishi, kompatibilizatorning taqsimotini va mexanik xossalarini yaxshilashdagi rolga bag‘ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob’yektlari va usullari”** nomli ikkinchi bobida tadqiqot obyektlari, aralashtirish jarayonlari amalga oshirilgan qurilmalar (bir shnekli, ikki shnekli ekstruderlar va plastograf), mexanik va reologik tahlillar uchun namunalar tayyorlash usullari, termik, mexanik, morfologik, reologik va strukturaviy xususiyatlarini tekshirish usullari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “Polipropilen va qatlamli silikatlar asosidagi nanostrukturali kompozitsion materiallar” nomli uchinchi bobi PP va modifikatsiyalangan 2 xil qatlamli silikat – MMT asosidagi polimer kompozitsiyon materiallarda interkalyatsiyalangan va eksfoliatsiyalangan nanotuzilmalar hosil bo‘lish mexnizmlari va kompozitsiyon materialning reologik, mexanik va termik xususiyatlari o‘rganilib bu xususiyatlarga nanotuzilmalarning ta’sirini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Dastlab aralashtirish jarayonidagi termo-mexanik ta’sirlarning PP ga ta’siri o‘rganilgan. PP turli xil termik va mexanik ta’sirlar va bu jarayonlarda suyuqlanma holatida bo‘lgan PP ga havo tarkibidagi kislorodning ta’siri o‘rganilgan. PP qayta ishlash jarayonida asosan zanjir uzilish natijasida makro molekulyar o‘zgarishlarga uchrashi va bu degradatsiyon jarayonlar kristal struktura va mexanik xossalarda o‘z aksini ko‘rsatishi aniqlangan.

PP va qatlamlar orasidagi modifikator miqdori bilan farq qiluvchi ikki xil OMMT – Cloisite15A va Cloisite20A asosidagi kompozitlarga to‘ldiruvchilar bir xil 3 mas.% miqdorida kiritilib, MA-p-PP kompatibilizatorning miqdori o‘zgartirilib borildi.

Olingan polimer kompozitsiyon materiallarning oquvchanlik xususiyatlarini tahlil qilish suyuqlanmaning oquvchanlik ko‘rsatkichi (SOK) usuli orqali o‘rganilganda PP ga MA-p-PP kiritilishi uning oquvchanligini oshirishi ma’lum bo‘ldi.

MA-p-PP ning molekulyar og‘irligining kichikligi sababidan PP bilan aralashtirilganda oquvchanlik ortib qovushqoqlik kamayib boraveradi. Kompozitlarda esa bu biroz boshqacha kechadi, ya’ni MA-p-PP miqdorining ortishi 1-rasmda ko‘rsatilganidek o‘zgarib boradi.




1-rasm. PP, Cloisite15A va Cloisite20A asosidagi polimer kompozitlar tarkibidagi MA-p-PP miqdorini suyuqlanmaning oquvchanlik ko‘rsatkichiga ta’siri

PP va MA-p-PP aralashmalaridan farqli ravishda kompozitlar oquvchanlik ko‘rsatkichlari MA-p-PP ning miqdori ortishi bilan bir tekisda ortib bormasdan, Cloisite15A da 9 mas.% gacha kamayib borib, 12 mas.% ga yetganda biroz ortadi. Cloisite20A asosidagi kompozitlarda esa 6 mas.% da eng kichik oquvchanlik qiymatlarini namoyon etib, 9 va 12 mas.% larda yana ko‘tarilishni boshlaydi. Bu jarayon PP va qatlamli silikatlarining o‘zaro ta’sirini yuzaga keltiradigan kompatibilizator vazifasini bajaruvchi MA-p-PP ning aralashtirish jarayonida ma’lum bir qismi qatlamli silikatlar qatlamlari orasidagi hajmga kirishi, qolgan qismi esa PP

fazada qolishi bilan bog'liq. Cloisite15A da 9 mas.% gacha bo'lgan MA-p-PP qatlamlararo hajmga yetib borsa, Cloisite20A da 6 mas.% miqdordagi MA-p-PP kompozitlar uchun kompatibilizatorga to'yinish miqdoridir.


Rentgen nurlari difraksiyasi (RND) usuli kristal tuzilmalarni tahlil qilish uchun qo'llaniladigan usul bo'lib, u interferensiyalangan monoxromatik rentgen nurlarini difraksiyasini o'rganishga asoslangandir. MMT ham o'zaro parallel joylashgan qatlamlardan tashkil topganligi sababli kristal tuzilma hisoblanadi. Kompozitlar olish jarayonida polimer makromolekulalarining qatlamlar orasiga kirishi natijasida bu kristal strukturada o'zgarishlar amalga oshadi. Shunga ko'ra RND tahlillari PP matritsada OMMT zarrachalarini taqsimotini o'rganishda samarali usul hisoblanadi.

2-rasmda PP, MA-p-PP va Cloisite15A asosidagi polimer kompozitlarning kichik burchaklardagi RND egri chiziqlari keltirilgan bo'lib, qatlamlararo masofa $d=3.06$ nm bo'lgan Cloisite15A polimer makromolekulalari qatlamlar orasiga kirishi natijasida bu masofa kengayib, 9 mas.% MA-p-PP kompatibilizator sifatida kiritilgan namunada 3.95 nm gacha ortadi. Bundan tashqari, 9 mas.% MA-p-PP kiritilgan namunada intensivlik eng kichik qiymatlarni tashkil etishi interkalyatsiyalangan tuzilmalardan tashqari malum bir miqdorda eksfoliatsiyalangan tuzilmalarning ham paydo bo'lganligidan dalolat beradi.



2-rasm. PP, MA-p-PP va Cloisite15A asosidagi polimer kompozitlarning difraktogrammalari, MA-p-PP miqdori 1-3%, 2-6%, 3-9% va 4-12%.


Cloisite20A asosidagi polimer kompozitlarda esa 3 mas.% MA-p-PP ishtirokida olingan 20A3 namunadan tashqari barcha tarkiblarda eksfoliatsiyalangan strukturalar yuzaga kelgani 4-rasmda tasvirlangan. Qatlamlari orasidagi masofa $d=2,4$ nm bo'lgan Cloisite20A ning $3,6^\circ$ dagi intensiv cho'qqi kichik burchaklarga siljib ko'rinmay ketishi qatlamlarning o'zaro parallelligini yuqotib PP matritsada qalinligi 1 nm bo'lgan individual disklar sifatida taqsimlanishidan dalolat beradi. 15A3 namunada esa eksfoliatsiyalanish uchun zarur bo'lgan funksiyonal guruhlar (kompatibilizator)ning yetishmasligi natijasida interkalyatsiyalangan strukturalar hosil bo'ladi.



3-rasm. PP, MA-p-PP va Cloisite20A asosidagi polimer kompozitlarning difraktogrammalari, MA-p-PP miqdori 1-3%, 2-6%, 3-9% va 4-12%.


Reologik va RND tahlillari natijalari PP matritsada Cloisite15A interkalyatsiyalangan, Cloisite20A eksfoliyatsiyalangan tuzilmalar hosil qilishi aniqlandi.

Ikki shnekli ekstruderda PP, PA6 va OMMT asosida olingan kompozitlarning RND natijalari 4-raslarda ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki PP va Cloisite20A kompozitlarida qatlamlar orasiga PP makromolekulalari kirishi natijasida d masofa 24.66 dan 34.75 Å gacha ortib interkalyatsiyalangan nanotuzilmalar hosil bo'ladi. PA6 va Cloisite30B kompozitlarida qatlamlar orasidagi masofani ko'rsatuvchi 4.83° dagi cho'qqi tekislanib ketib eksfoliyatsiyalangan strukturalar hosil bo'ladi. Bu hosil bo'lgan strukturalarning kompozitsiyon materialning ekspluatatsiyon xususiyatlarga ta'sirlarini baholash uchun mexanik va termik (termogravimetrik analiz (TGA) va diferensial skanerlovchi kalorimetr (DSK)) tahlillari amalga oshirildi.




4-rasm. PP, PA6 va ularning qatlamli silikatlar bilan kompozitlarining difraktogrammalari

5-rasmda DSK natijalari keltirilgan bo‘lib, unda PP ga MA-p-PP qo‘shilishi natijasida aralashmada ro‘y beradigan termik jarayonlar tasvirlangan. PP 160°C da suyuqlangandan keyingi qizdirish ta‘sirida 220°C dan yuqori haroratlarda havodagi kislorod ta‘sirida oksidlanish jarayonlarini boshdan kechirib, degradatsiyaga uchraydi. MA-p-PP qovushqoq oquvchan holatga o‘tgandan so‘ng darhol oksidlanishni yuzaga keltiradi. Bu ikki komponentning aralashmalari esa har ikki tashkil etuvchining oraliq xususiyatlarini namoyon qilib, MA-p-PP ning miqdori ortishi bilan oksidlanish jarayoni ham nisbatan pastroq haroratlarda boshlanadi. Demak, MA-p-PP miqdori ortishi bilan oksidlanish jarayoni yanada tezlashadi.




5-rasm. PP va MA-p-PP aralashmalarining DSK tahlili

Cloisite15A asosidagi kompozitlarda MA-p-PP ning miqdori ortishi bilan oksidlanish jarayoniga kirishish aksincha sekinlashganligini ko‘rish mumkin (6.a-rasm). Reologik hamda RND tahlillar natijalariga mos holda 9 va 12 mas.% MA-p-PP ni o‘z ichiga olgan namunalarda oksidlanish jarayonlari nisbatan sekinroq va pastroq temperaturalarda amalga oshadi.



a



b


6-rasm. PP, MA-p-PP, Cloisite15A (a) va Cloisite20A (b) asosidagi polimer kompozitlarning DSK tahlillari,

Cloisite20A ishtirokidagi polimer kompozitlarda MA-p-PP 6 mas.% gacha miqdorida oshirilishi oksidlanish jarayoni boshlanish temperaturasini va jadalligini pasaytirib, kompatibilizator miqdorining yanada 9 va 12 mas.% larga ortishi yana oksidlanish jarayonini jadallashtirib yuboradi (6.b-rasm).

Kompozitlarda oksidlanish jarayonidagi o'zgarishlar nanostruktura shakllanishi natijasida havoni tarkibidagi kislorodning PP makromolekulariga yetib borishi mobaynida bosib o'tadigan yo'li uzunligini uzaytirib o'tkazuvchanlik xususiyatlarini yaxshilash bilan birgalikda termik barqoroligini oshirsa, PP makromolekularining Cloisite15A va Cloisite20A qatlamlari orasida qolishi ham zanjir uzulishi natijasida hosil boladigan uchuvchi moddalar va radikallarni bloklab, ro'y beradigan ikkilamchi reaksiyalarni oldini olib, termik barqororlikni yaxshilaydi.

Mexanik xususiyatlarni o'rganishda cho'zilish moduli (E), oquvchanlik holatiga o'tish kuchlanishi (σ) va deformatsiya (ϵ) qiymatlari o'lchandi. PP ga MA-p-PP qo'shilishi PP ning E va σ ni kamaytirib ϵ ni orttirib, uni yanada elastikroq bo'lishiga olib keladi. Cloisite15A asosidagi kompozitlarda, MA-p-PP ortishi bilan, PP/MA-p-PP aralashmasidan farqli o'laroq, E va σ ham ortadi. Aslida, to'ldiruvchining tarkibi o'zgarmas 3 % dir. Buning sababi, RND dan ko'rinib turganidek, matritsada nanoo'lchamlarda taqsimlangan qatlamli silikat zarralarining hosil bo'lishidir. Cloisite20A asosidagi kompozitlar uchun kompozitning MA-p-PP bilan to'yinganligi, MA-p-PP miqdori 6 % bo'lganda sodir bo'ladi. Mexanik xususiyatlar - E va σ ham aynan 20A6 namunada eng katta (mos ravishda 1090 va 37,6 MPa) qiymatlarni namoyon qiladi. Kompatibilizatorning qo'shilishi aralashtirish va quyish jarayonida kompozitning oksidlanishi hisobiga mexanik xususiyatlarning yana pasayishiga olib keladi.

Dissertatsiyaning «**Polipropilen va poliamid 6 asosidagi polimer aralashmalar**» nomli to'rtinchi bobida PP va PA6 asosidagi an'anaviy kompatibilizator ishtiroki va uning ishtirokisiz polimer aralashmalar bilan birgalikda PP, PA6 va qatlamli silikatlar asosidagi nanostrukturalarga ega bo'lgan aralashmalarning reologik, morfologik, termik, strukturaviy va mexanik xususiyatlari taqqoslanib o'rganilgan.




7-rasm. PP, PA6 va ular asosida 3 mas. % qatlamli silikatlar (Cloisite30B va Cloisite20A) ishtirokidagi kompozitlarning kompleks qovushqoqligi va dinamik moduli

7-rasmda modifikatsiyalangan MMT bilan PA6 va PP asosidagi aralashmalar va nanokompozitlardagi boshlang'ich komponentlarning kompleks qovushqoqligi va dinamik modulining o'zaro bog'liqligi misol sifatida keltirilgan. Xuddi shunday egri chiziqlar barcha kompozitsiyalar qovushqoqlik va dinamik moduli qiymatlari uchun ham olingan.

PA6 va PP uchun 1 rad/s (polimer aralashmasi hosil bo'lish shartlariga mos keladigan) siljish maydoni gradiyentida komponentlarning qovushqoqlik qiymatlari bir-biriga yaqin. Bu, esa o'z navbatida, dispers fazada zarrachalarni taqsimlash uchun zaruriy shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bundan tashqari, nanokompozitlarning qovushqoqligi qatlamli silikat zarrachalarining taqsimlanish darajasiga, ya'ni MMT qatlamlararo bo'shlig'iga makromolekulalar interkalyatsiyasi darajasiga bevosita bog'liq bo'lgan anizotropiya koeffitsientiga juda sezgir ekanligi ma'lum. Eksfoliatsiyalangan PA6 nanokompozitlarining qovushqoqligi interkalyatsiyalangan PP nanokompozitlari bilan solishtirganda sezilarli darajada yuqori.

Barcha namunalar uchun murakkab qovushqoqlik siljish maydoni gradiyentining oshishi bilan kamayadi. Toza komponentlar asosidagi PA/PP 80/20 va 50/50 aralashmalarga MA-p-PP kompatibilizator va qatlamli silikatlar to'ldiruvchi sifatida kiritilgandan so'ng, murakkab qovushqoqlik qiymatlari sezilarli darajada oshadi. PA/PP 80/20 va 50/50 aralashmalari uchun eng yuqori murakkab qovushqoqlik qiymatlari komponentlarga mos keladigan nanokompozitlar bilan almashtirilganda yani PAClay/PPClay 80/20 va 50/50 namunalarda kuzatiladi. Bunday reologik xususiyatlar aralashtirish jarayonida kompozitsiyaning tuzilishi bilan, ya'ni komponentlar o'rtasidagi o'ziga xos o'zaro ta'sirlarning turli darajadagi paydo bo'lishi bilan bog'liq. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan kompozitsiyalarda PPClay tarkibidagi MA-p-PP mavjud bo'lib uning miqdori 6 % massani tashkil etadi. Ma'lumki MA-p-PP, PA6 makromolekulalari bilan reaksiyaga kirishib, PP bilan PA6 ning payvandlangan sopolimerini hosil qiladi. Bundan tashqari aralashtirish jarayonida PP ning degradatsiyasi ham kuzatilishi mumkin.

Skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) ostida namunalarning kriyo-singan sirtini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, kompatibilizator ishtirokidagi aralashmalardagi dispers faza zarrachalarining o'lchami an'anaviy PA/PP 80/20 aralashmalar bilan solishtirganda 7-8 baravar kichik ekanligini ko'rsatadi (8-rasm). Kompatibilizatorsiz olingan namunalar aralashmalari uchun sirtidan yulib olingan va sirtga yopishib turgan dispers fazaning zarralari aniq ko'rinadi. PP fazasini interkalyatsiyalangan PP nanokompoziti bilan almashtirishda bir xil tarkibdagi aralashma uchun PA fazasida bir tekis taqsimlangan dispers faza zarrachalarining o'lchami o'rtacha 500 ± 150 nm ni tashkil qiladi.



8-rasm. PA/PP aralashmasining 80/20 nisbatdagi namunalarning SEM tasvirlari. a) PA/PP, b) PA/PP/PP-g-MA, c) va d) PA/PPClay, e) va f) PAClay/PP.

Interkalyatsiyalangan PP nanokompoziti ushbu polimerlar aralashmasi uchun klassik MA-p-PP bilan solishtirganda samaraliroq kompatibilizator sifatida ishlaydi. PA fazasini eksfoliatsiyalangan PAClay nanokompoziti bilan almashtirish ham biroz kompatibilizatsiya ta'sirini ko'rsatadi (10-rasm e, f). Bu namuna dispers PP fazasining o'lchamlari 3-14 μm oralig'ida o'zgarib turadigan klassik aralashma bilan solishtirganda 1-8 μm keng intervalda zarracha hajmi taqsimotiga ega. Kompatibilizatsiya effektining yo'qligi eksfoliatsiyalangan MMT zarrachalari PA6 fazasining asosiy qismida taqsimlanganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida

dispers faza zarralarining birlashish (koalesensiya) jarayonida MMT ning qatnashmasligiga olib keladi. Xuddi shunday holat PA6 fazasi dispers faza vazifada bo'lgan PAClay/PP 20/80 namunada ham morfologiya rivojlanishida kuzatiladi


PA6 ning erish temperaturasi (T_e) $T_e = 224^\circ\text{C}$ bo'lib, bu adabiyot ma'lumotlariga mos keladi. 3% og'irlikdagi Cloisite30B ning kiritilishi T_e ni 212°C gacha pasaytiradi, dastlabki T_e ning kichik PA6 fazasi saqlanib qoladi. Bu hodisa, eksfoliatsiyalangan nanokompozitning hosil bo'lishi ya'ni PA6 peptid guruhining Cloisite30B yuzasidagi modifikator bilan intensiv o'zaro ta'siri bilan bog'liq bo'lib, natijada molekulyar harakatchanlikni cheklash orqali tuzilishda nomukammal kristallitlarning shakllanishi sodir bo'ladi. PA makrozanjirlarida nomukammal kristallitlar shakllanadi va ular nisbatan past haroratda erish jarayoni kuzatilishiga sabab bo'ladi. PPClay kompozitda esa PP, Cloisite20A ning qatlamlararo bo'shlig'ida interkalyatsiyalanishida bu sirtga kuchsiz bog'langanligi sababli PP ning T_e deyarli o'zgarishsiz qoladi, bu temperatura toza PP va uning kompozitsiyasi uchun $T_e = 162^\circ\text{C}$. PA6 va PP ning kristallanish harorati mos ravishda 170°C va 129°C haroratlarda namoyon bo'ladi.

Qatlamli silikatlar asosidagi nanokompozitlar olishda yakuniy kompozitning mexanik mustahkamlik xususiyatlariga xususan, elastiklik moduliga, fazalararo adgeziyadan tashqari, modifikatsiyalangan MMT dispersiyasi ham ta'sir qiladi, ya'ni anizotropiya koeffitsienti (aspect ratio - zarracha uzunligining qalinligiga nisbati).

PP, PA6 Cloisite30B va Cloisite20A bilan nanokompozitlari va shu jumladan ularning turli xil (80/20, 50/50, 20/80) nisbatdagi aralashmalari, elastiklik moduli (E), oquvchan holatga o'tish kuchlanishi (σ) va nisbiy uzayishi (ϵ) qiymatlari 9 - rasmda diagrammalar shaklida tasvirlangan. Bu diagramma bizga alohida komponentlardan ko'p komponentli kompozitsiyalarga o'tishda ushbu parametrlarning qanday o'zgarishini tahlil qilish imkonini beradi.

Elastiklik moduli qiymatlari polimerlar uchun biroz farq qiladi ya'ni PA6, PP ga qaraganda biroz kattaroq qiymatni ko'rsatadi, interkalyatsiyalangan PP nanokompozitda E ning qiymati PP bilan taqqoslaganda 10% ga oshadi va eksfoliatsiyalangan PA6 nanokompoziti uchun elastiklik moduli 50% dan ortiq yaxshilanadi, bu avvalgi tadqiqotlarda e'lon qilingan shunga o'xshash tadqiqotlarning natijalari bilan mos keladi. PA6 va Cloisite30B o'rtasidagi o'zaro ta'sirning mavjudligi sababli bu eksfoliatsiyalangan nanokompozit E va σ ning qiymatlari bo'yicha ko'proq o'sishni ko'rsatdadi. ϵ esa yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'zaro ta'sirning mavjudligi hisoboga PA6 makromolekulalarining harakati cheklanishi va buning natijasida uning qiymatlarini kamayishi kuzatiladi. Interkalyatsiyalangan PP nanokompozitlarida esa MMT bilan PP makromolekulalari bevosita o'zaro ta'sirlashmasdan MA-p-PP orqali ta'sirlashadi, ya'ni malein angidridning malein guruhlari Cloisite20A ning sirti bilan ta'sirlashsa PP qismi, PP bilan termodinamik jihatdan moyil bo'lganligi uchun PP matritsada Cloisite20A ning taqsimotini

ta'minlaydi.



9-rasm. Olingan polimer aralashmalarining mexanik xususiyatlari gistogrammalari

PA6/PP 80/20 seriyadagi polimer aralashmalar uchun elastiklik moduli qo'shimchalar qoidasiga ko'ra oraliq qiymatlarni qayd etadi. MA-p-PP ni kompatibilizator sifatida kiritish orqali qovushqoqlikni kuchaytirib, elastiklik modulning 20% ga oshishiga olib keladi. PPni interkalyatsiyalangan nanokompozit bilan, PA6 ni eksfoliatsiyalangan nanokompozit bilan almashtirish va ularni kompatibilizator ishtirokisiz bir vaqtning o'zida almashtirish elastiklik modulining mos ravishda 28%, 40% va 44% ga oshishini namoyon qiladi. Mexanik mustahkamlik bo'yicha eng yaxshi qiymatlar PA asosidagi eksfoliatsiyalangan nanokompozitda namoyon bo'ladi, PP ning interkalyatsiyalangan nanokompozitida esa bu parametrlar sezilarli o'zgarishlarga uchramaydi.

Mexanik xususiyatlardagi shunga o'xshash o'zgarishlar PA6/PP aralashmasi kompozitsiyalari 50/50 va 20/80 uchun topilgan. Elastiklik modulining qiymati 24-30% oraliqda o'zgarib turadi, oquvchan holatga o'tishdagi kuchlanish esa o'rtacha 10% gacha o'zgaradi, ε esa 15% dan kamroq darajada tushadi. PA6 fazasi dispers

faza (20 mas.%) vazifasini bajaradigan kompozitsiyalarda elastiklik modulining dastlabki tarkibiga nisbatan o'zgarishi 15% dan oshmaydi, oquvchan holatga o'tishdagi kuchlanish deyarli o'zgarmaydi. PP ni, PP nanokompoziti bilan almashtirish va PPnanokompozitni, PA6 nanokompozit bilan bir vaqtning o'zida aralashtirishda σ qiymatlari 20% dan ko'proqqa kamayadi.

PA6 uzluksiz faza va PP dispers faza bo'lgan aralashmalarda kompatibilizatorni kiritish va asl komponentlarni almashtirish bilan elastik modulni oshirishning sezilarli ta'siri mavjud. Kompatibilizator ishtirokidagi kompozitsiyalar yaxshi fazalararo adgeziyani ta'minlab, PP dispers fazasining zarrachalarini bir xil taqsimlanishi tufayli, bu kompozitsiya yuqori elastik modul va deformatsiyalanish qobiliyatini (360%) namoyon qiladi. Olingan natijalar, keyingi tadqiqotlarda nanokompozitlar asosidagi tarkiblarga kompatibilizatorning maqbul miqdorini kiritish orqali, ham fazalararo adgeziyani kuchaytirib, ham polimer dispers fazasining taqsimotini yaxshilab kompozitsiyalar olish va sinovdan o'tkazish kerakligini ko'rsatadi.

XULOSA

“Polipropilen va uning asosidagi polimer aralashmalarda nanostrukturalar turini hosil qilish, tuzilishi va xususiyatlari” mavzusida falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. PP/Cloisite20A va PA/Cloisite30B tizimlarida interkalyatsiyalangan va eksfoliatsiyalangan nanostrukturalarning hosil bo'lish xususiyatlari aniqlandi (kompatibilizatoridan foydalangan holda va foydalanmasdan), bu tuzilmalarning hosil bo'lish darajasi va nisbati ko'p jihatdan PP kompozitsiyalarining molekulyar tuzilishiga, kompatibilizator va uning tarkibiy xususiyatlari, shuningdek, aralashtiruvchi qurilmalar (plastograf, bir va ikki shnekli ekstruder) ga bog'liqligi aniqlandi;

2. Birinchi marta PP/PA6 aralashmalariga qatlamli silikatlar asosida nanokompozitlarni kiritish yo'li bilan qovushqoqlikni ortishi tufayli dispers faza zarralarining birlashishi (koelessensiya) jarayonini sekinlashtirishga yordam berib, dispers fazaning nano o'lchamli zarrachalarini barqarorlashtirish bilan bog'liq bo'lgan kompatibilizatsiyon effekt topildi va bu effekt PA6 matritsa bo'lgan tarkiblarda yaqqolroq namoyon bo'ladi;

3. O'rganilayotgan tizimlar uchun erish harorati (T_e) va kristallanish (T_{kr}) sezilarli o'zgarishlarga uchrashi aniqlandi (PP/PA6 aralashmalarda PP matritsa bo'lgan kompozitsiyalar uchun, boshlang'ich T_e ga qo'shimcha ravishda, past haroratlar tomon siljigan uchta zaif erish cho'qqisi kuzatiladi, shunga o'xshash hodisa PP ni interkalyatsiyalangan nanokompozit bilan almashtirilgan aralashmalarda komponentlarning miqdori teng va PA6 matritsa bo'lgan kuzatiladi. Bu PA6 ning fraksiyonal kristallanishi - qatlamli silikatning alohida eksfoliatsiyalangan zarralari yuzasi va fazalar orasidagi hajmdagi ya'ni oraliq qatlamda hosil bo'ladigan kristallitlarning mukammalligi bilan tavsiflanadi. Hech bir fazaning T_{kr} qiymatlari deyarli o'zgarmaydi, faqatgina PP matritsasi bo'lgan kompozitsiya bundan mustasno, chunki PA6 fazasining kristallanish jarayoni allaqachon tugallangan sababli

kristallanish qiyinlashadi va T_{kr} ning sezilarli darajada pasayishi (120-92°C) kuzatiladi.)

4. Interkalyatsiyalangan PP tuzilmalar elastiklik modulini (E) 15% ga oshishi aniqlandi, eksfoliatsiyalangan PA6 tuzilmalari esa 50% dan ko'proq ortish imkonini beradi. PP/PA6 aralashmalarida toza komponentalar o'rniga nanokompozitlardan foydalanish, E ning 45% gacha ko'tarilishiga yordam beradi, mexanik kuchlanish qiymati σ - 45 MPa ga teng va deformatsiya qiymatlarida esa sezilarining darajada (10% gacha) pasayishi qayd etildi.

5. Toza komponentlar asosidagi aralashmalarni klassik kompatibilizator ishtirokidagi aralashmalar bilan solishtirganda, fazalararo adgeziya muammosi hal etilmaydi, aralashmada kompatibilizator va PP asosidagi nanokompozitning mavjudligi optimal kombinatsiyani aniq namoyon etadi ya'ni E 30% ga oshib, mexanik kuchlanish 55 MPa darajasida saqlanib qoladi va deformatsiya 360% tashkil etishi aniqlandi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ИНСТИТУТЕ ХИМИИ И ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ**
ИНСТИТУТ ХИМИИ И ФИЗИКИ ПОЛИМЕРОВ

БЕРДИНАЗАРОВ КОДИРБЕК НУРИДИН УГЛИ

**ФОРМИРОВАНИЕ, СТРОЕНИЕ И СВОЙСТВА НАНОСТРУКТУР В
ПОЛИПРОПИЛЕНЕ И ПОЛИМЕРНЫХ СМЕСЯХ НА ЕГО ОСНОВЕ**

01.04.06 – Физика полимеров

02.00.12 – Нанохимия, нанофизика и нанотехнология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ФИЗИКО – МАТЕМАТИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан под номером B2023.2.PhD/FM890.

Диссертация выполнена в Институте химии и физики полимеров.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский) (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.polchemphys.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:	Ашуров Нигмат Рустамович доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Абдурахманов Умарбек доктор физико-математических наук, профессор Атаханов Абдумуталиб Абдупатто угли доктор технических наук, профессор
Ведущая организация:	Государственное унитарное предприятие «Фан ва тараккиёт»

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 при Институте химии и физики полимеров по адресу: 100128, г.Ташкент, ул. Абдулла Кадыри, 7^б. Тел. (99871) 241-85-94, факс: (99871) 241-26-61, e-mail: polymer@academy.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института химии и физики полимеров за №__ (Адрес: 100128, г. Ташкент, улица Абдулла Кадыри 7^б. Тел.: (99871) 241-85-94).

Автореферат диссертации был разослан «__» _____ 2023 года.
(протокол рассылки № __ от “__” _____ 2023 года).

С.С.Негматов

Председатель разового Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор,
академик

И.Н.Нурғалиев

Ученый секретарь разового Научного совета по
присуждению ученых степеней д.ф.-м.н.,
старший научный сотрудник

С.Ш.Рашидова

Председатель разового Научного семинара при научном
совете по присуждению учёных степеней,
д.х.н., профессор, академик

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире с расширением области применения полимерных материалов настоятельно требуют инновационных подходов к поиску путей усиления упруго-прочностных и специальных свойств полимерных материалов. Создание новых полимерных материалов на основе производимых значительно экономичнее нежели разработка технологии получения нового полимера и доведение его до промышленного производства.

Сегодня в мире интенсивно ведутся научные исследования, направленные на создание наноструктурных полимерных смесей и наполненных композитов, выявлению корреляционных зависимостей морфологии и структурных особенностей с конечными эксплуатационными характеристиками материалов. В связи с этим важной задачей является получение многокомпонентных наноструктурных композиционных полимерных материалов на основе кристаллизующихся полимеров полипропилена и полиамид-6 с включением в композицию нанокompозитов со слоистым силикатом (органический модифицированный монтмориллонит).

В Республике проводятся широкомасштабные мероприятия по созданию конкурентоспособной полимерной продукции на основе местного сырья и поддержке отечественных производителей, где особое внимание уделяется вопросам создания импортозамещающей и экспортоориентированной продукции. В Стратегии развития нового Узбекистана¹ и в Концепции развития науки до 2030² года были поставлены задачи «... производство готовой продукции с высокой добавленной стоимостью на основе глубокой переработки ресурсов местного сырья...». В связи с этим особенно актуальны научные и практические исследования, направленные на управление методами формирования многокомпонентных наноструктурированных композиционных полимерных материалов на основе кристаллизующихся полимеров полипропилена и полиамид-6 с включением в композицию нанокompозитов со слоистым силикатом, улучшение их свойств и расширение области применения.

